

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Ped.78.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

RAJABOV TO‘XTASIN IBODOVICH

UZLUKSIZ TA’LIM TIZIMIDA O‘ZBEK MUSIQA FOLKLORINI
O‘RGATISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (musiqa)

Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Termiz – 2023

Falsafa doktori (DSc)dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации докторской философии (DSc)

Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (DSc)

Rajabov To‘xtasin Ibodovich

Uzluksiz ta’lim tizimida o‘zbek musiqa folklorini o‘rgatish mexanizmini takomillashtirish..... 3

Ражабов Тухтасин Ибодович

Совершенствование механизма обучения узбекскому музыкальному фольклору в системе непрерывного образования.....29

Rajabov Tuxtasin Ibodovich

Improving the mechanism of teaching Uzbek musical folklore in the system of continuing education.....57

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works61

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Ped.78.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

RAJABOV TO‘XTASIN IBODOVICH

**UZLUKSIZ TA’LIM TIZIMIDA O‘ZBEK MUSIQA FOLKLORINI
O‘RGATISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (musiqa)

**Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Termiz – 2023

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.DSc/Ped327 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tersu.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Hamroyev Alijon Ro'ziqulovich
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Panjiyev Qurbonniyoz Berdiyevich,
pedagogika fanlari doktori(DSc), professor

Muhammadjon Quronov,
pedagogika fanlari doktori, professor;

Abdullayev Rustambek Samigovich,
san'atshunoslik fanlari doktori, professor.

Yetakchi tashkilot:


Samarqand davlat universiteti.


Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.Ped.78.03 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2023-yil «14» oktabr soat 9⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 190111, Termiz shahri Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Tel.: +99876221-74-55; faks:+99876221-71-17; e-mail: termizdu@umail.uz).


Dissertatsiya bilan Termiz davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (207 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 190111, Termiz shahri Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Tel.: +99876221 221-74-55).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «29» sentabr kuni tarqatildi.
(2023-yil «29» sentabrdagi 10/5-raqamli reestr bayonnomasi).




I.Chariyev
Bir martalik ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, p.f.d., professor


M.Q.Bozorova
Bir martalik ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, p.f.n.dotsent


X.J.Xudoyqulov
Bir martalik ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, p.f.d., professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda kuzatilayotgan globallashuv va integratsiyalashuv jarayonlari iqtisodiy taraqqiyot uchun qulay muhit yaratayotgan bir davrda jamiyat hayotida milliy ma'naviyat, madaniyat va san'at, milliy o'zlikni namoyon qilish murakkab ijtimoiy muammolardan biri sifatida qaralmoqda. Zero, globallashuv va integratsiyalashuv jarayonlarining asosiy talablaridan biri – xalqaro tajribalarni tanqidiy-tahliliy o'rganishga alohida e'tibor qaratishni taqozo etadi. Jumladan, milliy musiqiy merosdan ta'limiy maqsadlarda foydalanish amaliyoti nuqtai nazaridan xorijiy tajribalar, xususan, zamonaviy musiqiy ta'limda klassik musiqa asarlaridan foydalanish borasida Buyuk Britaniya, Germaniya va Fransiya tajribalari, ayniqsa, bastakorlar ijodiga oid materiallarni musiqiy ta'limga tatbiq etish borasida Ozarbayjon, Tojikiston, Turkiya, Eron, Yaponiya va Hindiston kabi malakatlarda olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari hamda ta'limiy tadbirlarni o'rganish alohida e'tiborga molik. Mamlakatimizda integratsiyalashuv tendensiyalarining asosiy prinsiplari asosida tashkil etilayotgan xalqaro miqyosdagi musiqiy tadbirlarda milliy musiqiy merosga alohida e'tibor qaratilayotganligi bu merosning ta'limiy va tarbiyaviy imkoniyatlaridan samarali foydalanish lozimligini ko'rsatmoqda.

Dunyo miqyosida milliy musiqiy merosdan ta'limiy maqsadlarda foydalanish, zamonaviy musiqiy ta'limda klassik musiqa asarlaridan foydalanish, bastakorlar ijodiga oid materiallarni musiqiy ta'limga tatbiq etish, kompetensiyaviy umumta'lim fanlari standartlari mazmuniga kiritish tamoyillari, ularning pedagogik tizimning bo'g'inlaridagi o'zgarishlarga ta'siri, psixologik va metodologik asoslari va xususiyatlari, mustaqil ravishda ta'lim natijalariga erishish konsepsiyasi, shaxsni rivojlantirishga yo'naltirilgan, ijtimoiy va ma'lum bir sohadagi faoliyatga doir kompetensiyalarga oid ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda

Mamlakatimizda ishlab chiqilgan milliy o'quv dasturi ta'lim mazmuniga xalqaro tajribalarning foydali jihatlarini tatbiq qilish bilan bir qatorda milliy-estetik qadriyatlardan optimal tarzda foydalanish zaruriyatini yuzaga keltirdi. Bu borada milliy musiqiy madaniyatimiz alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbek xalqining milliy mumtoz kuy va qo'shiqlarini, musiqiy merosini o'rganish va kelajak avlodlarga yetkazishning eng samarali yo'llaridan biri, shubhasiz, bo'lajak musiqa o'qituvchisini bu jarayonga tayyorlash bilan bog'liq. Musiqiy ta'limda o'zbek milliy musiqasining ta'limiy va tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu ma'noda musiqa o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida o'zbek madaniyati rivojiga munosib hissa qo'shgan taniqli san'atkorlarning pedagogik merosidan to'laqonli foydalanish, ajdodlarimizning madaniy meroslarini, ular ilgari surgan pedagogik g'oyalar va qarashlarini bugungi ta'lim tizimiga tatbiq etish, ta'lim mazmunini boyitish hamda milliy asosni mustahkamlash masalalarini dolzarb ijtimoiy-pedagogik muammolardan biri sifatida kun tartibiga qo'ydi.

O'zbekistonning bugungi kundagi madaniy hayoti milliy musiqa madaniyatini tiklash va uni rivojlantirish borasida Respublika va xalqaro ahamiyatga molik

bo'lgan tadbirlar – "Yaqin va O'rta Sharqning og'zaki ijodi professional musiqasi", "Sharq taronalari", "Maqom festivali" kabi yirik musiqa festivallari, ko'rik-tanlovlar ta'sis etildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17- noyabrdagi "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3391-sonli, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019- yil 21- noyabrdagi "Maqom san'atiga ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarni tashkil etish to'g'risida"gi 940- sonli, 2020 - yil 2-sentyabrdagi "Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati institutini tashkil etish to'g'risida"gi 536-sonli qarori oliy musiqiy-pedagogik ta'lim oldiga yangi vazifalarni qo'ydi. Mazkur dissertatsiya bevosita yuqoridan keltirilgan Farmon va qarorlarni ijrosiga yo'naltirilgan vazifalarni bajarishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti fan va texnologiyalarni rivojlantirishning "I.Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy–ma'rifiy rivojlantirish, innovasion iqtisodiyotni rivojlantirish" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiyaning mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi¹
Ta'lim jarayonini loyihalash faoliyatiga tayyorlash texnologiyalarini takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari, jumladan, Angliya (Centre of increasing to pedagogical qualification on base Manchesters university), AQSH (Princeton university), AQSH (Association for Educational Communications and Technology – AECT), Germaniya (Rheinische Friedrich-Wilhelms-Universität Bonn), Janubiy Koreya (Seoul National University, Puchong University, Yonsei University, Sungkyunkwan University, Pohang University of Science and Technology, Pusan National University, Chonbuk National University), Rossiya (Ta'lim akademiyasi), Fransiya (University of Strasbourg), Yaponiya (Miyagi pedagogika universiteti)da olib borilmoqda.

Ta'lim jarayonini loyihalash ko'nikmalarini talabalarda rivojlantirishga oid quyidagi ilmiy natijalar olingan: o'quvchilarni o'quv jarayonini loyihalash faoliyatiga tayyorlash jarayoni kreativ faollikni rivojlantirish asosida ishlab chiqilgan (Belfield pedagogical university); pedagogik jarayonlarni samarali tashkil etishga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiyaviy vazifalarni loyihalash, ma'naviy-axloqiy bilimlarni turli tarbiyaviy vaziyatlarda qo'llashni optimallashtiradigan pedagogik-psixologik treninglar tizimi yaratilgan (Centre of increasing to pedagogical qualification on base Manchesters university); ta'lim jarayonlarini rivojlantirishning loyihaviy-konstruktiv texnologiyalari fanlararo aloqadorlikni qo'llash asosida ishlab chiqilgan (Chonbuk National University); o'quvchilarning kreativ tafakkurini shakllantirish orqali ta'limni didaktik loyihalash texnologiyasi ishlab chiqilgan (Rossiya ta'lim akademiyasi), ta'lim jarayonlarida pedagogik

¹ Mazkur qism quyidagi manbalar asosida yoritilgan: Bandura A. (Ed.). Self-efficacy in changing societies.–New York: Cambridge University Press, 1995.; John H. Holland Redwood City, California.–Addison-Wesley, 1998; Botcheva, L., Shih, J., Huffman, L. C. Emphasizing Cultural Competence in Evaluation: A Process-Oriented Approach / L. Botcheva, J. Shih, L.C. Huffman // American Journal of Evaluation. 2009. Volume 30. №2. – P.176-188.

qobiliyatlarni takomillashtirish texnologiyasi kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish asosida ishlab chiqilgan (Strasburg universiteti); shaxs ma'naviyatini shakllantirishning neyrolingvistik dasturlashtirish shaxsga yo'naltirilgan muammoli ta'lim texnologiyasini qo'llash asosida takomillashtirilgan (Miyagi pedagogika universiteti).

Dunyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini loyihalashtirish bo'yicha quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: ta'lim tizimida ta'lim-tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish va boshqarishning pedagogik mexanizmlarini tashxislash va korreksiyalash asosida takomillashtirish; o'quvchilarning kreativ faoliyatini takomillashtirish; pedagogik jarayonlarni loyihalash ko'nikmasini shakllantirish mexanizmlarini ishlab chiqish; darsda o'qituvchi va o'quvchining imkoniyatlarni integratsiyalash asosida pedagogik jarayonlarni tashkil etish faoliyatiga tayyorlashni modellashtirish.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. O'zbek xalq musiqasi musiqiy-pedagogik ta'lim nuqtayi nazaridan chuqur o'rganilishi, ya'ni uning xususiyatlari, janrlari va faoliyat ko'rsatish sohalari, ta'limiy va tarbiyaviy imkoniyatlari va boshqa jihatlari R.S. Abdullayev, S.Begmatov, D.A.Jamolova, O.Ibrohimov, F.Karomatov, B.Karomatova, O.Matyoqubov, I.Rajabiy, R.Yunusov, T.B.G'ofurbekov, I. Qudratov va boshqa olimlarning ishlarida tadqiq etilgan. O'zbek xalq musiqa asboblarning tovush chiqarish xususiyatlari va tayyorlanishi, shakl va tarixi T.S.Vizgo, A.N.Petrosyans ishlarida yoritilgan. T.Kuznetsova, N.G.Shoxnazarov, N.S.Yan-Yanovskiy va boshqalarning ishlarida bastakorlik ijodida xalq qo'shiq va kuylari, maqom musiqalaridan foydalanish masalalari o'rganilgan. Xalq musiqachilari to'g'risidagi ma'lumotni M.Sh.Axmedov, K.A.Olimboyeva, I.Akbarov, T.M. Mirzayev va T.Yuldoshevalar tomonidan yozilgan kitob, maqola va yozma suhbatlarda topish mumkin. O'rta maktablarning o'quv tarbiyaviy jarayonida xalq an'analarini qo'llash masalalari, xalq musiqasi, folklor va xalq pedagogika tamoyillari S.X.Temurova, I.B.Gashimov, J.Beshimov, X.Bobomirzayev, N.Toliboyev, M.A.Nabiyeva, U. Egamberdiyeva kabi olimlarning tadqiqotlarida tahlil qilingan. Talabalarni tarbiyalash jarayonida xalq musiqiy ijodidan foydalanishning ayrim jihatlari bilan M.X.Boltaboyev, M.B. Qosimov, A.Sh.Xasanov kabi olimlar shug'ullangan. Oliy va o'rta maxsus musiqa o'quv yurtlarining amaliyotida mavjud bo'lgan dasturlar, metodik qo'llanma va tavsiyanomalar A.T. Odilov (chang), S.A.Aliyev, R.A. Filitsiant (g'ijjak), F.N. Vasilev, Q.Usmonov, R.Qosimov, X.Nurmatov (rubob), A.I. Petrosyans M.Toyirov (nay), A.Nazarov (bas dutor) va boshqa mualliflar tomonidan yaratilgan. Konservatoriyaning ijrochilik bo'limida maqom musiqasini o'rganish metodikasi I.Rajabovning ishlarida, xalq asboblarning orkestr bilan ishlash metodlari A.I.Petrosyans, A.X.Liviyev, K.Azimov, F.Q. Jurayevlar tomonidan yoritilgan.

Mazkur muammo Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlari tomonidan ham tadqiq etilgan. Xususan, Y.B.Aliyev, A.Archajnikova, O.B.Bushnyakova, Z.S.Kvashina, O.M.Kuzmina, T.G.Mariupolskaya, S.P.Spivak, I.V.Shintyapina, T. I. Stepanova, G.M.Sipinlar tomonidan amalga oshirilgan

ishlarda musiqiy ta'limda milliy merosdan foydalanishning ayrim masalalari tadqiq etilgan.

Xorijlik olimlardan T.Levin, Van Xuave, A.Trichkov, A.Jung, J.Elsner, Orf Karl, F.Leotar, J.Dalkroz, Y.Villem, D.Kevin, A.Grizman, N.Sumanlar musiqa folklori vositasida o'quvchi yoshlarni tarbiyalash mexanizmlarini tadqiq qilgan. Mazkur jarayonning ilmiy asoslari muayyan tizim asosida tadqiq etilmaganligi dissertatsiya mavzusini musiqa pedagogikasining dolzarb muammolaridan biriga bag'ishlanganligini anglatadi. Xalq musiqasini soha bo'yicha mutaxassislar tayyorlash borasidagi didaktik ahamiyati alohida e'tirofga loyiqligi bois bu muammo dunyo miqyosida o'rganilib kelingan. Shu ma'noda xorijlik mutaxassislardan A.Shveysner, V Frankl kabi tadqiqotchilarning ishlari bizning muammo yuzasidan muayyan qiziqish uyg'otadi.

Bastakorlar T. Jalilov va Y.Rajabiyning musiqiy ijodini musiqashunoslik yo'nalishida o'rganilgan bo'lsa-da, ularning xalq musiqashunosligi va o'zbek milliy musiqa maktabini yaratishga daxldor ishlarini o'rganish, tahlil etish, bastakorlarning o'zbek xalq pedagogikasi bo'yicha metodik izlanishlarining asosiy mazmuni shaxsni ma'rifiy- axloqiy tarbiyalashga asoslanganligini isbotlash, musiqiy-pedagogik ta'lim manbai sifatidagi didaktik imkoniyatlarini aniqlash kabi dolzarb masalalar oliy musiqiy ta'lim nuqtai nazaridan maxsus tadqiq etishni taqozo etadi. Zero, ularning o'zbek musiqiy madaniyatiga qo'shgan hissalariga oid barcha ishlar musiqa sohasiga tegishli bo'lsa-da, ularda pedagogik uslub xususiyatlariga baho berishning ilmiy asoslangan yondashuvlari yetarli darajada ochib berilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi: Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Yuksak ma'naviyatli, jismonan barkamol shaxsni tarbiyalash texnologiyasini takomillashtirish (2019-2022 y.y.)" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi uzluksiz ta'lim tizimida o'zbek musiqa folklorini o'rgatish hamda musiqa ta'limi samaradorligini oshirish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

uzluksiz ta'lim tizimida o'zbek musiqa folklorini o'rgatish mexanizmini takomillashtirish nuqtayi nazaridan o'rganish va nazariy jihatdan tahlil qilish;

uzluksiz ta'lim tizimida o'zbek musiqa folklorini o'rgatishga doir ustoz san'atkorlarning pedagogik qarashlarini metodologik va xususiy metodik jihatdan tahlil etish asosida ulardan musiqiy-pedagogik ta'limda foydalanishning pedagogik talablarini ishlab chiqish;

uzluksiz ta'lim tizimida o'zbek musiqa folklorini o'rgatish mexanizmini takomillashtirishning pedagogik tizimini ishlab chiqish hamda uning samaradorlik darajalarini asoslash;

uzluksiz ta'lim tizimida o'zbek musiqa folklorini o'rgatish mexanizmini takomillashtirishga oid metodik tavsiyanomalar ishlab chiqish.

uzluksiz ta'lim tizimida o'zbek musiqa folklorini o'rgatish mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan pedagogik tamoyillardan foydalanish tizimini ishlab chiqish va amaliy sinovdan o'tkazish.

Tadqiqot obyekti uzluksiz ta'lim tizimida o'zbek musiqa folklorini o'rgatish mexanizmini takomillashtirish jarayoni belgilanib, tajriba sinov ishlariga Buxoro, Samarqand, Qashqadaryo, Navoiy viloyati ta'lim muassasalarining 887 nafar respondentlar jalb etildi.

Tadqiqot predmeti sifatida uzluksiz ta'lim tizimida o'zbek musiqa folklorini o'rgatish mexanizmini takomillashtirishning mazmuni, shakl, vosita va metodlari.

Tadqiqot metodlari. Turli manbalarda saqlanayotgan folklor, etnografiya, musiqashunoslikka oid manbalarni, umumiy pedagogika hamda musiqiy-pedagogik materiallarni o'rganish va tahlil qilish; O'zbekiston musiqa san'ati arboblari bilan suhbatlar o'tkazish; oliy ta'lim muassasalari va umumta'lim maktablari dasturlari, musiqiy-pedagogik xujjatlarning tahlil qilish; kuzatish (bilvosita, bevosita, qo'shimcha), anketa so'rovnomalari o'tkazish, talaba va o'qituvchilar bilan suhbatlar; pedagogik eksperiment va uning natijalarini tahlil qilish hamda matematik statistika metodida qayta ishlash va umumlashtirish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uzluksiz ta'lim tizimida o'zbek musiqa folklorini o'rgatish mexanizmini takomillashtirish haqidagi ma'lumotlar hamda musiqiy-pedagogik faoliyatda qo'llagan metodik yondashuvlar, qarashlar pedagogik tizim komponentlari (musiqiy-pedagogik faoliyatning maqsadi va mazmuni, qo'llanilgan shakl va vositalar, pedagogik shart-sharoitlar) sifatida shakllantirilgan;

uzluksiz ta'lim tizimida o'zbek musiqa folklorini o'rgatish mexanizmini takomillashtirishning musiqiy-pedagogik merosi va zamonaviy pedagogik nazariyalar o'rtasidagi umumiy xususiyatlar aniqlandi va bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligidagi o'rni belgilangan;

uzluksiz ta'lim tizimida o'zbek musiqa folklorini o'rgatish mexanizmini takomillashtirishda musiqiy merosdan foydalanishning pedagogik talablari hamda didaktik imkoniyatlari aniqlashtirilib, ularning samaradorlik darajalari eksperimental sinovlar natijalariga ko'ra asoslangan;

o'zbek musiqa folklorini o'rgatishda integral yondashuv asosi (g'oyalar, vositalar, uslublar, faoliyatning turli tuzilmalarining umumiyligi, obyektlarning o'ziga xos xususiyatlari) va faoliyatning yaxlitligini ta'minlash modeli zamonaviy metodikaning aksentuatsiyasi asosida tashkiliy-pedagogik, metodik, psixologik shart-sharoitlari takomillashtirilgan;

uzluksiz ta'lim tizimida o'zbek musiqa folklorini o'rgatish mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan pedagogik tamoyillardan foydalanish tizimi ishlab chiqilgan va amaliy sinovdan o'tkazilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilarda o'z aksini topgan:

uzluksiz ta'lim tizimida o'zbek musiqa folklorini o'rgatish mexanizmini takomillashtirish ko'rsatkichi va darajalari muhim omil ekanligi asoslangan, kasbiy sifatlarni baholash mexanizmi ishlab chiqilgan;

uzluksiz ta'lim tizimida o'zbek musiqa folklorini o'rgatish mexanizmini takomillashtirishning didaktik ta'minoti amaliyotga tatbiq etilgan;

uzluksiz ta'lim tizimida o'zbek musiqa folklorini o'rgatishni takomillashtirish mexanizmlari aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi amal qilingan yondashuv va tamoyillar, qo'llanilgan usullar va nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, muammo yuzasidan respublikamizdagi hamda xorijiy olimlarning g'oyalariga, amaliyotchi o'qituvchilarning tajribalariga tayanilganligi, keltirilgan tahlillar va tajriba–sinov ishlari samaradorligining matematik–statistika metodlari vositasida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy qilinganligi olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertasiyada uzluksiz ta'lim tizimida o'zbek musiqa folklorini o'rgatish mexanizmini takomillashtirish borasidagi muammolarni hal etishga qaratilgan qarashlar, metodik yondashuvlar, ilmiy tavsiyalarining ishlab chiqilganligi, shuningdek, o'zbek musiqa folklorini o'rgatishga yo'naltirilgan metodik vaziyatlar mazmuni, prinsiplari, shakllari, vositalari, usullari va imkoniyatlari takomillashtirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertasiya xulosalari va tavsiyalaridan uzluksiz ta'lim tizimi uchun ishlab chiqilgan ilmiy–metodik yondashuvlar va metodik tavsiyalardan xalq ta'limi xodimlarining malaka oshirish hududiy markazlari o'quv faoliyati jarayonida ham foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Uzluksiz ta'lim tizimida o'zbek musiqa folklorini o'rgatish mexanizmini takomillashtirishga doir tadqiqot natijalari asosida:

uzluksiz ta'lim tizimida o'zbek musiqa folklorini o'rgatish mexanizmini takomillashtirish hissiy–irodaviy, mazmunli–operasion, motivasion kabi kasbiy faoliyatga doir psixologik–pedagogik xususiyatlarga doir takliflardan Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 281–son buyrug'ining 1–ilovasi bilan tasdiqlangan “Talaba–yoshlarning mafkuraviy immunitetini va g'oyaviy bardoshlilikini mustahkamlash bo'yicha uslubiy tavsiyalar”ni ishlab chiqishda foydalanilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish markazining 2022- yil 22 - noyabrdagi 02/01-01-78–son ma'lumotnomasi). Natijada, uzluksiz ta'lim tizimida o'zbek musiqa folklorini o'rgatish mexanizmini takomillashtirishga erishilgan;

interfaol yondashuv asosida uzluksiz ta'lim tizimida o'zbek musiqa folklorini o'rgatish mexanizmini takomillashtirishda kreativ, faollik, reflektiv, empatik hamda kasbiy kompetensiyani bosqichma–bosqich shakllantirishga doir takliflardan “O'zbek musiqa folklori” fanidan darslik hamda “O'zbek xalq musiqa ijodi” fanidan o'quv qo'llanma tayyorlashda foydalanilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish markazining 2022-yil 22-noyabrdagi 02/01-01-78–son ma'lumotnomasi). Natijada, “O'zbek xalq musiqa ijodi” fanini o'qitish jarayonining sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qilgan;

uzluksiz ta'lim tizimida o'zbek musiqa folklorini o'rgatish mexanizmini takomillashtirish dars va darsdan tashqari jarayonlar, maqsadli kurslar, vebinarlar va o'quv materiallari integrasiyasini ta'minlash asosida takomillashtirilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish markazining 2022-yil 22-noyabrdagi 02/01-01-78–son ma'lumotnomasi). Natijada, o'zbek musiqa folklorini o'rgatish bo'lajak

o'qituvchilarda kasbga bo'lgan qiziqishi, o'qituvchilikka bo'lgan ijobiy munosabat tizimining rivojlanishiga erishilgan;

o'zbek musiqa folklorini o'rgatishda integral yondashuv asosi (g'oyalar, vositalar, uslublar, faoliyatning turli tuzilmalarining umumiyligi, obyektlarning o'ziga xos xususiyatlari) va faoliyatning yaxlitligini ta'minlash modeli zamonaviy metodikaning aksentuatsiyasi asosida tashkiliy-pedagogik, metodik, psixologik imkoniyatlaridan "O'zbek musiqa folklori" fanining malaka talablarini ishlab chiqishda foydalanilgan. (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish markazining 2022- yil 22 - noyabrdagi 02/01-01-78-son ma'lumotnomasi) Natijada, musiqa ta'limi yo'nalishi talabalarining o'zbek musiqa folkloriga oid bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalari takomillashtirilgan.

uzluksiz ta'lim tizimida o'zbek musiqa folklorini o'rgatish mexanizmini takomillashtirish asosida loyihaviy texnologiyalarni ta'lim jarayonida qo'llash orqali roli, ishbilarmonlik o'yinlari, mustaqil faoliyatni tashkil etishning kontekstli-o'yinli vaziyat usullari 5111100-musiqa ta'limi yo'nalishi o'quv-tarbiya jarayoniga tatbiq etilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish markazining 2022- yil 22-noyabrdagi 02/01-01-78-son ma'lumotnomasi) Natijada, uzluksiz ta'lim tizimida o'zbek musiqa folklorini o'rgatish mexanizmi takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 8 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza shaklida taqdim etilib, aprobasiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertasiya mavzusi bo'yicha 3 ta darslik, 2 ta o'quv qo'llanma, 2 ta monografiya jami 15 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasining doktorlik dissertasiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 15 ta maqola, shundan 11 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertasiya kirish, to'rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, ishning umumiy hajmi 227 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi asoslangan; dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot rejalari bilan aloqadorligi ochib berilgan; tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti, predmeti va tadqiqot metodlari ifodalangan; tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, olingan ma'lumotlarning ishonchliligi bayon etilgan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining tatbiqi va ularning sinovdan o'tishi bayon qilingan. Bundan tashqari, chop etilgan ishlar va dissertatsiya hajmi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Uzluksiz ta'lim tizimida o'zbek musiqa folklorini o'rgatishning nazariy va amaliy asoslari**" deb nomlanadi. Bunda uzluksiz ta'lim tizimida o'zbek musiqa folklorini o'rgatish dolzarab metodik

muammo sifatida, o'zbek musiqa folklorini o'rgatish mexanizmi, uzluksiz ta'lim tizimida o'zbek musiqa folklorini o'rgatishning amaliy holati xususida fikr bayon etilgan.

O'zbek musiqa folklorida vatan, tabiat, insoniy fazilatlardan halollik, mehnatsevarlik, to'g'rilik, vatanga, ona tabiatga, insonga mehr-muhabbat, shuningdek, tinchlik, adolat tarannum etiladi, salbiy illatlarga tanqidiy munosabat o'z aksini topgan ayni shu jihatlari bilan milliy tarbiyaning mazmuniga mosdir. Endilikda o'zbek musiqa folklorini musiqa-pedagogika o'quv dasturlariga, havaskorlik to'garaklari faoliyatiga olib kirish, shu orqali yoshlarning estetik dunyoqarashlarini shakllantirish bugungi kunning ijtimoiy talabidir.

Shuni e'tirof etish kerakki, o'zbek musiqa folklori negizida xalq og'zaki ijodi yoki ayrim shoirlar ijodiga mansub adabiy matn yotadi. Bundan tashqari hozirgi zamon bastakorlari o'zbek musiqa folklori ohangidan ijodiy foydalanib kelishyapti. O'zbek musiqa folklorini yoshlarning ma'naviy va estetik tarbiyasida foydalanish uchun maqsadga muvofiqligi nuqtai-nazaridan qarab chiqar ekanmiz, asosiy e'tiborni ularda ko'tarilgan g'oyalarga, tarbiyaviy yo'nalish va didaktik mazmuniga qaratdik.

O'tgan davr va hozirgi zamon o'zbek musiqa folklorini tahlil qilar ekanmiz, ularni qudratli tarbiya vositalaridan biri deb ta'kidlashga haqlimiz. Ulardagi ma'naviy va estetik g'oyalar yoshlarda vatanparvarlik, do'stlik, halollik, salbiy ko'rinishlarga nisbatan muhosasizlik kabi insoniy fazilatlarni shakllantirishga va rivojlantirishga ijobiy ta'sir etadi. O'zbek musiqa folklorining tarbiyaviy ta'sirchanlikka ega ekanligining yana bir asosiy jihati uning matnida o'z ifodasini topadi. Yuqorida ta'kidlab o'tilgani kabi ijobiy xislatlarni ulug'lab, salbiy illatlarni qoralovchi matnga mos musiqa uyg'unlashib, inson hissiyotiga ijobiy ta'sir etish jihatidan estetik tarbiyaning qudratli vositalaridan biriga aylanadi. Mobodo, qo'shiq musiqasiz aytilganda ham (katta ashula) musiqaning o'rni, uning bevosita eshitilmas ta'siri bilinib turadi. Musiqa qo'shiqning estetik ta'sirini kuchaytiradi. Bu esa ijrochilarni ham, tinglovchilarni ham birday tarbiyalashga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ajab she'riy misralar, usul, sehrli ohanglar bilan yo'g'rilgan qo'shiqdagi his tuyg'ular inson qalbida ezgulik va go'zallik hissiyotlarini uyg'otadi. Shuning uchun ham, o'zbek musiqa folkloridan, ularning ma'naviy va estetik tarbiyaviy imkoniyatlaridan pedagogik maqsadlarda foydalanish yaxshi samara beradi. Bu o'rinda kelib chiqadigan muammo o'zbek musiqa folkloridan estetik tarbiyada foydalanganda uning tarbiyaviy tomonlarini to'g'ri hisobga olish, ya'ni ularni talabalar tomonidan to'g'ri idrok qilib, o'zbek musiqa folklorini aynan tarbiyaviy imkoniyatga ega bo'lgan namunalarini muayyan pedagogik mezonlar asosida sinchiklab tanlab olish, ularni talabalarga har tomonlama tushuntirish, ya'ni uning yaratilishi, ijro yo'li, mashhur ijrochilari, ijodkorlari, g'oyaviy badiiy mazmuni haqida imkon qadar ma'lumotlar berishga jiddiy e'tibor qaratish lozim.

Inson o'z tabiatiga ko'ra doimo go'zallikka intiladi. Shuning uchun ham go'zallikka intilish mayli bilan yashaydigan insonni yoshligidan boshlaboq go'zallik qonunlari bo'yicha tarbiyalash, undagi iste'dodni ro'yobga chiqishiga imkoniyat yaratish, ularning go'zallik haqidagi tasavvurlarini kengaytirib,

ma'naviy barkamol shaxs qilib tarbiyalashdek vazifani to'laqonli bajarishda tarbiya kompleksining tarkibiy qismlaridan biri- estetik tarbiya muhim o'rin tutadi.

O'zbek musiqa folklori faqatgina an'anaviy ijrochilik namunalari bo'lib qolmay, ayni paytda xalq o'rtasida keng tarqalgan, abadiy voqelikka mansub ijod va san'at deb baholanmog'i zarur. Ayrim ilmiy va ommaviy maqolalar va hatto o'quv manbalarida «o'zbek musiqa folklori» degan atamani tor ma'noda tushunish, uni faqat folklor qo'shiqlaridan iborat deb qarash holatlarini uchratamiz. Bu esa o'z navbatida shu sohada ish olib borayotgan musiqa ta'limi mutaxassislari va badiiy havaskorlik to'garaklari rahbarlarini bir yoqlama ish olib borishlariga olib keladi. Bizning vazifamiz o'tgan davr va hozirgi zamon o'zbek o'zbek musiqa folklorini tahlil qilib, imkoni boricha, o'zbek musiqa folklorining ayrim namunalari yoshlarning ma'naviy olamlarini boyitish yo'lidagi xizmatga yo'llashdir. Chunki o'zbek musiqa folklori boshqa milliy qadriyatlarimiz singari o'tgan yaqin tariximizning xatarli oqibatlari natijasida xalqimiz madaniy hayotidan tobora uzoqlashib, tanazzulga yuz tutayotgan, kelajagi mavhum san'at turlari qatoriga kelib qolgan edi.

Hozirgi paytda juda ham kam bo'lsada oliy o'quv yurtlarida ashula, raqs, xalq cholg'u ansambli, xor ijrochiligi, maqomchilar ansambli, vokal-cholg'u, drama va hatto balet singari turlar bo'yicha to'garaklar faoliyat ko'rsatayotgani shundan dalolat beradi. Talabalar o'qishdan bo'sh paytlarida ana shunday to'garaklarga qatnashadilar. Shuning uchun ham estetik tarbiya tizimi san'atning turli xil ko'rinishlari bilan doimiy aloqada bo'lib, yoshlar ongi va hissiyotiga kuchli ta'sir o'tkazadi. Bu hol mashg'ulot jarayonida sodir bo'ladi va fanlarning o'zaro aloqasini yo'lga qo'yishda zarur omil sanaladi. Badiiy havaskorlik to'garaklaridagi mashg'ulotlar yoshlarni go'zallikka, ijobiy voqealarga xayrixohlik tuyg'usini o'stiradi. Bu o'z navbatida didlar bahsiga olib keladi. Bahs esa rivojlanishning o'ziga yarasha qonunidir.

Talaba-yoshlar didini tarbiyalash murakkab va mashaqqatli ishdir. Yoshlarning didlari har xil bo'lganidan ularni to'g'ri yo'lga yo'naltirishda har bir shaxsning o'ziga yarasha tayyorgarligini, g'oyaviy va ma'naviy yetukligini, qiziqishlarini hisobga olish lozim bo'ladi. Shu ilmiy-hayotiy haqiqatni ta'kidlab o'tish zarurki, hozirgi yoshlar orasida uchrab turadigan dag'allik, odobsizlik, havoyilik, kattalarga hurmatsizlik, ishyoqmaslik, san'atga nopisandlik singari illatlarga qarshi kurashda estetik tarbiya benazir vositalardir. Milliy nafosat va milliy axloq, milliy etika o'zbek xalqining, Respublikamizning ma'naviy ravnaqida naqadar salmoqli o'ringa ega bo'lsa, estetik tarbiya bilan axloqiy tarbiya ham yoshlarning ma'naviy barkamol bo'lishida bebaho vositalardir. Shuning uchun ham o'zbek musiqa folklorini yoshlar ma'naviyatiga chuqur singdirish borasida ishni tubdan o'zgartirish, bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda alohida pedagogik yo'nalish, uslublardan foydalanib ish tutish lozim bo'ladi. Klassik musiqani his qilmay turib, zamonaviy musiqani idrok etib bo'lmaydi. Klassik shoirlarimiz va bastakorlarimiz, xonanda va sozandalar tomonidan yaratilgan va ijro etib kelingan qo'shiqlarning hammasi axloqiy-estetik tarbiya uchun xizmat qilib kelgan. Binobarin, o'tmishda qo'shiq o'z matni, ya'ni she'ri bilan uyg'un

holatda kishilar hissiyotiga ta'sir etib kelgan. Qo'shiqlarda odob, ahloq, mardlik, vatanparvarlik, ota-ona qadriga yetish, ularni e'zozlash, yaxshilik qilish, halollik singari insoniy fazilatlar madh etilgan. Do'stlik, sahiylik, kamtarlik, oliyjanoblik, yomon illatlarga nafrat haqida yozilgan g'azallar, she'r namunalari xofizlar tilidan tushmay kelgan. Buyuk Navoiy, Lutfiy, Avloniy, Bobur, Mashrab, Ogahiy, Zebuniso, Nodira, Uvaysiy, Haziniy, Furqat, Muqimiy, Zavqiy, Mahtumquli kabi klassik shoirlarning yor, diyor, vatan va ota-onani ulug'lovchi, to'g'rilik, ezgulik, odob ham hayoni, do'stlikni tarannum etuvchi she'r va g'azallari bilan aytiluvchi, shu kunlarda ham xalq hofizlari, xonandalar tomonidan sevib kuylanib kelinayotgan qo'shiqlarning umrboqiyiligi, xalqchilligi, ommaviyligi aslida ulardagi ilgari surilgan g'oyalarning juda nafis, xalq ruhiga, diliga, qalbiga yaqin musiqiy ohanglar bilan uyg'unlashib, mahorat bilan kuylanib kelinayotganligidadir. Bunday qo'shiqlar xalqimiz ma'naviy bisotidan juda ko'p bo'lib, ulardan ayrimlarining mazmun-mohiyati, tinglovchiga tarbiyaviy ta'siri xususida pedagogik nuqtai nazardan tahliliy fikr bildirish foydadan holi emas.

Pedagogika oliy o'quv yurtlarida talabalarni estetik tarbiyalashda o'zbek musiqa folkloridan foydalanish muammosining nazariy jihatdan tadqiq etilishi quyidagicha xulosalarni shakllantirish imkonini berdi:

1. Pedagogika oliy o'quv yurtlarida talabalarni o'zbek musiqa folklori vositasida estetik tarbiyalash o'ziga xos muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etilishini taqozo etadi. Tadqiqotning natijalari mavjud holatning nazariy xulosalarini umumlashtirish natijasida mavjud muammolar, yutuq va kamchiliklarni bir tizimga solish amalga oshiriladigan ta'limiy va tarbiyaviy tadbirlar mazmunini belgilash imkonini beradi.

2. Ilmiy tadqiqot muammosiga oid bir qancha tadqiqot ishlarini xususan, A.Sh.Hasanov, H.Nurmatov, F.Jo'rayev, D.Kamolova, O.A.Vasilenko, N.G.Borisova, F.N.Xalilov, B.Azimov, N.M.Qosimova va boshqalarning ilmiy izlanishlarida musiqa san'atining turli janrlari orqali estetik tarbiyani amalga oshirish muammolari tadqiq etilgan bo'lsada, ularning aksariyati maktab pedagogikasiga bog'langandir. Oliy o'quv yurtlari talabalarini estetik tarbiyasiga oid I.M.Nisanov, M.V.Qosimova, R.Mamatqulova, M.Ochilov, S.X.Fayzulina, M.Qodirov, E.Umarovlarning ishlarida yoshlarni milliy qadriyatlar, xususan musiqa orqali axloqiy badiiy tarbiyalashning pedagogik mohiyati yoritilgandir. Bu kabi ishlarining barchasida ham estetik tarbiyaning u yoki bu yo'nalishi bo'yicha o'ziga xos jihatlari tadqiq etilgan bo'lsada, ularda pedagogika oliy o'quv yurtlari talabalarini o'zbek musiqa folklori vositasida estetik tarbiyalash muammosi mustaqil tadqiqot sifatida o'rganilmagan.

3. O'zbek musiqa folklori vositasida estetik tarbiyalashga to'g'ri pedagogik faoliyat asosida yondashish bu borada o'zbek musiqa folklorining tarbiyaviy-ta'sir imkoniyatlarini samarali bo'lishini ta'minlaydi.

Bo'lg'usi pedagoglarni o'zbek musiqa folklori vositasida estetik tarbiyalash bir qancha maqsadlarni ko'zda tutadi. Bizningcha, badiiy havaskorlik, ashula to'garaklariga jalb etilgan talaba yoshlar bilan bu borada ish olib borishda avvalo quyidagi jihatlariga alohida ahamiyat berish lozim:

1. O‘zbek musiqa folklori va kuylari yoshlarning ma’naviy olamiga emotsional ta’sir ko‘rsatishi va bu borada yetarlicha samara berishiga erishish.

2. San’at bilan voqelikning ijtimoiy roli va ahamiyatini ta’kidlagan holda ularning sertarmoq turlarida o‘zbek musiqa folklorining o‘rnini, badiiy qimmatini, umummadaniyat-timizdagi mohiyatini to‘g‘ri anglab olishga ko‘maklashish.

3. Talabalarda san’atga oid bilimlarni mustahkamlash bilan birga ularda bu boradagi yengil-yelpi, mazmunan sayoz, ta’sirsiz va chet el ohanglariga solib aytilgan, o‘zbek musiqa madaniyati an’alariga zid bo‘lgan qo‘shiqlarga nisbatan murosasizlik tuyg‘ularini hosil qilish.

4. Talabalarni o‘zbek musiqa folklorini ma’naviy-axloqiy, falsafiy, ijtimoiy-siyosiy tomonidan to‘g‘ri baholay olish, ularni tarbiyaviy xususiyatlarini anglashga o‘rgatish.

5. Maqsad o‘zbek musiqa folklori bilan ishlash bo‘lsa-da, talabalarda san’atning boshqa turlariga ham mehr-muhabbat uyg‘otish, ularning umumiy madaniy saviyasini kengaytirish.

6. Xalq qo‘shiqlaridagi nazmiy matnning mazmunini tarbiyaviylik nuqtai-nazaridan tahlil qilib uni talabalar ongiga to‘laligicha yetkazish.

Talabalarni estetik tarbiyalash jarayonida yuqorida sanab o‘tilgan pedagogik omillarni inobatga olish ko‘zlangan maqsadga erishishni kafolatlashi mumkin.

Tadqiqotning ikkinchi bobi **“Uzluksiz ta’lim tizimida o‘zbek musiqa folklorini o‘rgatishning mazmuni”** deb nomlanadi. Mazkur bobda maktabgacha ta’lim tizimida o‘zbek musiqa folklorini o‘rgatish mazmuni, boshlang‘ish sinflarda o‘zbek musiqa folklorini o‘rgatish mazmuni, 5-7- sinflarda o‘zbek musiqa folklorini o‘rgatish mazmuni haqidagi fikrlar bayon etilgan.

O‘zbek musiqa folklorida mehr-muruvvat, adolat, to‘g‘rilik, vijdon, or-nomus, iroda, tadbirkorlik, matonat kabi ko‘plab insoniy xislat va fazilatlar majmui bo‘lgan komil inson g‘oyasi asosini xalqimizning azaliy ezgu orzularini tashkil qiladi. Zardushtiylikning muqaddas kitobi «Avesto»da halol mehnat komillikning asosiy mezonini sifatida talqin etilgan. Komil inson g‘oyasi islom falsafasidan oziqlanib, yanada chuqur ma’no-mazmun kasb etdi. Ibn Sino, Beruniy, Forobiy, Navoiy kabi mutafakkirlarning komil inson tarbiyasi haqidagi fikrlari jamiyatni taraqqiy ettirishda inson omili muhim ahamiyatga ega ekanligini asoslaydi. Adabiyot darslarida xalq og‘zaki ijodi namunalarini milliy qadriyatlarga bog‘lab o‘rgatish dolzarb pedagogik muammo ekanligi yoshlarda komil insonga xos sifatlarni shakllantirish va ularni tarbiyalash bilan chambarchas bog‘liq jarayon ekanligida ko‘rinadi. Bu jarayonda:

- o‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalarini tahlil qilish vositasida yoshlar qalbida milliy g‘urur tuyg‘usini o‘stirishga e’tibor qaratiladi;

- xalq og‘zaki ijodi asarlaridagi milliy qadriyatlar tahlili orqali yoshlar ma’naviy dunyosini boyitish va yuksaltirishga erishish ko‘zda tutiladi. Zotan, ma’naviyat – odamning ruhiy va aqliy olamining majmuidir. Ma’naviyat jamiyatning, millatning, shu bilan birga ayrim bir kishining ichki dunyosi, ruhiy kechinmalari, aqliy qobiliyati, idrokini mujassamlashtiruvchi tushunchadir. Inson aqli, qo‘li bilan nimaniki yaratmasin, uning zamirida fikr, g‘oya, bilim, qobiliyat,

iste'dod, tajriba, mehnat malakasi sifatida shakllangan ma'naviyat yotadi. Ma'naviyat tushunchasi insonning ma'naviy-axloqiy fazilatlari va kamolotini ifodalaydi;

- adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarni xalq og'zaki ijodi namunalari bilan tanishtirish orqali ularda chin insoniy fazilatlarni shakllantirish, yaratuvchi, fidoyi insonlarga xos xususiyatlarni tarkib toptiriladi;

- milliy o'zlikni anglash, ajdodlar xotirasiga sadoqat, ular qoldirgan ma'naviy merosni qadrlash, ardoqlash va asrab-avaylash tuyg'ulari shakllantiriladi;

- ota-bobolarimizning donishmandlik bilan yo'g'rilgan falsafiy mazmundagi pand-nasihatlar mohiyati, ma'no-mazmunini anglatish orqali o'quvchi yoshlar ezgulik ruhida tarbiyalanadi;

- bugungi kunning ma'naviy muammolarini xalq etishda, taraqqiyotimizga to'sqinlik qilayotgan illatlarni yo'qotishda bu o'gitlardan foydalanish yo'llari ko'rsatiladi.

- O'zbekiston o'z istiqloliga erishganidan so'ng jamiyat ma'naviy hayoti sog'lomlashtirilishi va rivojlantirilishi, inson omiliga jiddiy e'tibor qaratilishi ham mazkur muammoning ta'lim-tarbiyaviy jihatdan nechog'li muhim ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatib turibdi. Ta'lim tizimida ham barcha o'qitish ashyolari, usul va vositalari aynan jamiyat taraqqiyotiga o'z kuch-qudrati, imkoniyatlari, bilimlari, ko'nikma-malakalarini safarbar etadigan insonlarni shakllantirishga yo'naltiriladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar mehnat tarbiyasida xalq an'alaridan foydalanishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatning izchil hamda maqsadga muvofiq olib borilishi ko'zlangan natijaga erishish imkonini beribgina qolmay, dialektik va dinamik xususiyatga ega ekanligi asoslangan.

Maktabgacha yoshdagi bolalar mehnat tarbiyasida xalq an'alaridan foydalanish murakkab jarayon bo'lib, bu maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilaridan nafaqat kasbiy mahorat, ayni vaqtda milliy qadriyatlar, xususan, xalq an'analari mazmunida ilgari surilgan g'oyalar mohiyatidan xabardor bo'lishni taqozo etadi. Asosiy sub'ektlar sifatida tarbiyachilar xalq an'analari orasidan mazmun va yo'nalishiga ko'ra mehnatni tashkil etish g'oyalariga ega an'analarni ajrata olishlari hamda ular vositasida tarbiyalanuvchilarga muayyan mehnat ko'nikmalarini hosil qilish, mehnatga nisbatan rag'bat uyg'otish imkoniyatini beruvchi tadbirlar rejasi va loyihasini yarata olish layoqatiga ega bo'lishlari zarur. Bu esa, tarbiyachilardan bolalarning mehnat tarbiyasini xalq an'analari vositasida tashkil etishga ijodiy yondashishni taqozo etadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar mehnat tarbiyasida xalq an'alaridan foydalanish jarayonini samarali tashkil etish uchun quyidagilarga amal qilish lozim:

1. Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilari xalq an'analari mazmunida ilgari surilgan g'oyalar mohiyatidan xabardor bo'lishlari.

2. Ular xalq an'analari orasidan mehnat faoliyatini tashkil etish borasidagi g'oyalarni ifoda eta oladiganlarini aniqlay olishlari.

3. Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilari tomonidan xalq an'analari asosida bolalar mehnat tarbiyasini tashkil etishga yo'naltirilgan faoliyat rejasi, loyahasini ishlab chiqilishiga erishish va uni muntazam takomillashtirib borish.

4. Tarbiyachilar xalq an'analari asosida maktabgacha yoshdagi bolalar mehnat tarbiyasini keng ko'lamda izchil tashkil etishga imkon beruvchi zarur shart-sharoitlarni yaratishlari va mehnat faoliyatini tashkil etishlari.

5. Tarbiyachilar mazkur mavzudagi mashg'ulotlarning samaradorlik darajasini muntazam o'rganib tahlil qilib borishlari.

Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilarida xalq an'analari asosida bolalar mehnat tarbiyasini tashkil etish borasidagi ko'nikma va malakalar darajasi quyidagi mezonlarga ko'ra aniqlandi:

1. Tarbiyachilar tomonidan maktabgacha yoshdagi bolalar mehnat tarbiyasida xalq an'analaridan foydalanish borasidagi pedagogik ehtiyojni anglay olishlari.

2. Tarbiyachilarning ish faoliyati mazmunida mehnat g'oyalari ifoda etuvchi xalq an'analar xususidagi ma'lumotlarga ega bo'lishlari.

3. Tarbiyachilarda xalq an'analari asosida maktabgacha yoshdagi bolalar mehnat tarbiyasini tashkil etish borasidagi ko'nikma va malakalarining shakllanganlik darajasi.

4. Tarbiyachilarning maktabgacha yoshdagi bolalar mehnat tarbiyasida xalq an'analaridan foydalanishga nisbatan ijodiy yondashuvlari darajasi.

Urf-odatlar - kishilarning turmush tarziga singib ketgan, ma'lum muddatda takrorlanib turuvchi, xatti-harakat, ko'pchilik tomonidan ma'qullangan va qabul qilingan xulq-atvor qoidalaridir. Masalan, kichiklarning kattalarga salom berishi, erta turib uy-hovlini tartibga keltirib qo'yish, mehmonlarga alohida hurmatda bo'lish, bayram arafasida kasal, ojiz, qiynalganlardan xabar olish, yordam lozim bo'lganlarnikiga xasharga borish kabilar o'zbek xalqining yaxshi urf-odatlaridan hisoblanadi.

Marosim - an'ana va urf-odatning tarkibiy qismi hisoblanib, kishilar hayotidagi muhim voqealarni nishonlashga qaratilgan rasmiy va ma'lum kayfiyatda o'tadigan, ramziy xarakterga ega bo'lgan tadbirlardir. Masalan, ism qo'yish marosimi, nikohdan o'tish marosimi, dafn qilish marosimi, xotirlash marosimi va hokozolar.

Xullas, an'analar, bayramlar, urf-odatlar, marosimlar insonning dunyoga kelishidan tortib, to umrining oxirigacha bo'lgan jarayonlarni qamrab oladi. Bolaning dunyoga kelishi, qulog'iga azon aytish, tish chiqishi, beshikka solish, yurishi, soch olinishi, sunnat tuyi, uylanish - nikoh to'yi, payg'ambar yoshi to'ylari, yuz yoshi, kumush to'y, oltin to'y kabi sanab o'tilgan marosim-odatlarimizning, boshqacha qilib aytganda qadriyatlarimizning qirralari nihoyatda ko'pdir. Hoh oilada bo'lsin, hoh jamiyatda bu kabi marosimlarning nishonlanishi bola tarbiyasiga ham o'z ijobiy ta'sirini o'tkazadi. Bu qadriyatlar orqali yosh avlod barcha axloqiy xususiyatlarga ega bo'lib boradi, jumladan vatanga e'tiqodli, mehnatkash, ona tabiatni asrovchi, ota-onaning qadriga yetadigan, ilimli, saxiy, vatani uchun jonini fido qiladigan insonlar bo'lib yetishadi.

Milliy-ma'naviy qadriyatlardan biri xalq og'zaki ijodi hisoblanadi. Xalq

og‘zaki ijodi o‘zbek xalqi kabi qadimiy hisoblanib, uning qamrovi juda kengdir. Shulardan biri o‘zbek xalq maqollaridir.


Maqollar o‘zbek xalq ijodiyotining ommaviy janrlaridan biri. Asrlar davomida og‘izdan - og‘izga o‘tib kelgan maqollar xalqimizning dunyo-qarashi, jamiyatga bo‘lgan munosabati, tarixi va ruhiy holatini ifodalaydi, shuningdek maqollarda hayotiy tajribalar natijasida kelib chiqqan qimmatli fikrlarning xulosasi aks etadi. Maqollar ko‘pincha she‘riy formaga ega bo‘ladi. Ular o‘zining ixcham, pishiq va puxta ishlanganligi bilan ham xalq og‘zaki ijodining boshqa turlaridan farq qiladi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Uzluksiz ta’lim tizimida o‘zbek musiqa folklorini o‘rgatish jaryonini takomillashtirish imkoniyatlari”** deb nomlangan.

Bunda o‘zbek musiqa folklorini o‘rgatish jarayonini takomillashtirish imkoniyatlari, o‘zbek musiqa folklorini o‘rgatish jarayonini takomillashtirishning shakl, vosita va metodlari, o‘zbek musiqa folklorini o‘rgatish jarayoniga zamonaviy yondashuv xususida fikr bayon etilgan.

O‘zbek musiqa folklorini o‘rgatish jarayoni xalq ijtimoiy, ma’naviy va madaniy turmush tarzining o‘zgarishi bilan xalq qo‘shiqlari ham shaklan va mazmunan boyib, uning madaniy turmush tarzi, orzu istaklarini namoyon etuvchi ta’lim-tarbiya vositasiga aylangan.

Keyinchalik «Navro‘z», «Mehrjon», «Sada», «Gul» bayramlari, «Guli surx», «Chiqon», «Xatar», «Darvishona», «Ashaddarozi» o‘yinlari, «Iyd al-fitr» (kichik iyd yoki ro‘za hayiti), «Iyd al-kabr» (katta iyd yoki qurbon hayiti) kabi milliy udum va qadriyatlar ham xalq an‘analariga qo‘shildi. Har bir bayram, marosimning tabiiy ta’sir kuchi shu an‘ananing mazmunini ochishga xizmat qiluvchi urf-odatlar, rasm-rusumlar bilan mustahkamlanadi.



1-rasm. O‘qitishga ta’sir etuvchi omillar.

O'zbek xalq qo'shiqlarining qadimiy namunalari mehnat va mavsum qo'shiqlaridir. qo'shiq ijodkorlarining amaliy faoliyati ovchilik, chorvachilik, dehqonchilik, hunarmandchilik bilan bevosita bog'langan va ular mehnatkash xalqning qadimiy urf-odatlarini, marosim va e'tiqodlari negizida yashab kelgan.


Mehnat qo'shiqlari turli mehnat jarayonlari bilan bog'liq. Masalan, xirmon yanchishda «xo'p mayda» yoki «mayda gul», sigir, qo'y, echkilarni sog'ish va buzoq, qo'zi, uloqlarni emizishda «xo'p-xo'p», «qurey-qurey», «churey-churey» qo'shiqlari kuylangan. Er haydash, o'rim, yorg'uchoq tortish, charx yigirish va bo'z to'qish jarayonlarida maxsus qo'shiqlar aytilgan. Insonning yashash tarzi, turli-tuman irim-sirimlar, urf-odatlar, mavsumiy yumushlar, marosimlar va bayramlar bilan bog'liq ravishda juda ko'p xalq qo'shiqlarining namunalari yaratilgan.

«Navro'z» bayrami bilan bog'liq bo'lgan dasturxon bezash, sumalak, halim pishirish, ariq-zovurlarni tozalash, birinchi ko'chat ekish, marhumlarni xotirlash, ota-ona va keksalar, nogironlarga muruvvat ko'rsatish, qadamjolarni ziyorat qilish, shirinliklar ulashish, bir-biriga hadyalar in'om etish, mash'alalar yoqish, ariq, daryolar buyiga borish, sayllar o'tkazish kabi udumlar odat tusiga kirib qolgan. Shuningdek, Navro'z bayramida yetti xil (bug'doy, arpa, no'xat, jo'xori, guruch, mosh, loviya)dan go'ja tayyorlanib, qo'ni-qo'shnilarga ulashilgan. Bu odatlarning barchasi ramziy ma'noga ega. Xalq bu marosimlar orqali yangi yilda yog'ingarchilikning mo'l bo'lishi (yog'ingarchilik ko'p bo'lsa, hosil mo'l bo'ladi, chorva uchun esa em-xashak serob bo'ladi); tinchlik, farovonlik bo'lishi, odamlar o'rtasida mehr-muruvvat, insonparvarlik barqarorlashuviga ishora etadi.

Xalq qo'shiqlarida hayot badiiy ramzlar orqali aks ettiriladi va shu tufayli inson qalbida estetik his-tuyg'ular, hayajonlar, ko'tarinki kayfiyat, rahm-shafqat, shodlik, quvonch, g'am-qayg'u, hasrat, nafrat paydo bo'ladi. Shuning uchun ham xalq qo'shiqlariga barcha yoshdagi kishilar birday murojaat qiladilar.



2-rasm. Innovatsion texnologiya tamoyillari.



3-rasm. Uzluksiz ta'lim tizimida o'zbek musiqa folklorini o'rgatish mexanizmini takomillashtirish modeli.

Bolalar uchun maxsus yaratilgan bu qo‘shiq kishi ongiga ona suti bilan kiradi. Keyinchalik u tobora kengayadi, rang-barang ohanglar, xilma-xil ramzlar so‘zlar bilan mukammallashib boradi.

Farzand tug‘ilishi, chaqaloqning beshik davri, ulg‘ayishi, jismoniy va nutqiy barkamolligi, yosh va sunnat to‘ylari, ulg‘ayish ehtirolari bilan bog‘liq aytim-olqish, erkalama, ovutmachiq, qichiqmachiq, yalinchoq, hukmlagich, chalg‘itma, chorlama, guldur-gup, sanama, aytishma, tegishmachiq, masxaralamalardan iborat butun bir bolalar qo‘shiqlari tizimi yaratilgan.

